ISSN 2181-4732
E-ISSN 2181-4015

UO‘K 332.1:338.1 https://doi.org/10.70769/218-4732.ITJ.2026-3.21

QASHQADARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK RIVOJLANISHIDAGI HUDUDIY TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Qiyomova Qunduz Asror qizi, doktorant (PhD), E-mail: dynamic579579@gmail.com,
ORCID: 0009-0009-3110-1713 , Science ID: FQD-1026-0074
Ismatova Shirina Mahmud qizi, magistr, E-mail: shirinamaxmudovna1646@gmail.com,
ORCID: 0009-0003-9151-4102

Qarshi davlat texnika universiteti, Qarshi, O‘zbekiston

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kichik biznes rivojlanishidagi hududiy nomutanosibliklar tahlil qilinadi va amaldagi hududiy qo‘llab-quvvatlash choralari asoslab beriladi. Qashqadaryo viloyatidagi 14 ta tuman va 2 ta shaharga oid rasmiy ma’lumotlar asosida, 2025-yil 1-yanvar va 2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni doimiy aholi soni bilan taqqoslanadi. Bunda asosiy ko‘rsatkichlar, jumladan, har 1000 nafar aholiga to‘g‘ri keladigan korxonalar zichligi, ushbu zichlikning o‘zgarish sur’atlari, variatsiya koeffitsiyenti hamda zichlik logarifmlarining standart chetlanishi hisoblab chiqilgan. Tahlil qilinayotgan davr mobaynida har bir tumanga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha korxonalar sonini zichligi oshishi kuzatildi, hududlararo variatsiya koeffitsientida esa kamayish ro‘y berdi. Biroq, Ko‘kdala tumanini tahlil qilingan tumanlar qatoridan uning nisbatan ancha yangi tashkil qilinganligini hisobga olgan holda uni istisno qilib ko‘rganda ushbu pasayish ko‘lami sezilarli darajada kamayganligini ko‘rish mumkin. Yechim sifatida ikki bosqichli qo‘llab-quvvatlash tizimi, tadbirkorlik zichligi darajasi va dinamikasi uyg‘unligi asosida hududlarni dastlabki saralash, so‘ngra mavjud muayyan cheklovlarni aniqlash va tegishli vositalarni tanlash taklif etildi.*

Kalit so‘zlar*: mintaqaviy iqtisodiyot, kichik biznes, hududiy nomutanosibliklar, Qashqadaryo viloyati, tadbirkorlik zichligi, maqsadli qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik ekotizimi.*

УДК 332.1:338.1

УЛУЧШЕНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ СОКРАЩЕНИЯ РЕГИОНАЛЬНЫХ РАЗЛИЧИЙ В РАЗВИТИИ МАЛОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В КАШКАДАРИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Киёмова Кундуз Асроровна, докторант (PhD)
Исматова Ширина Махмудовна, магистр

Каршинский государственный технический университет, г. Карши, Узбекистан

Аннотация. *В статье анализируются территориальные диспропорции в развитии малого бизнеса и обосновываются действующие меры территориальной поддержки. На основе официальных данных по 14 районам и 2 городам Кашкадарьинской области сопоставляются численность действующих малых предприятий и микрофирм и численность постоянного населения по состоянию на 1 января 2025 года и 1 января 2026 года. Рассчитаны основные показатели: плотность предприятий на 1 000 жителей, темпы её изменения, коэффициент вариации и стандартное отклонение логарифмов плотности. За исследуемый период плотность предприятий увеличилась во всех районах, а коэффициент межтерриториальной вариации снизился. Однако при исключении из анализа Кукдалинского района с учётом его сравнительно недавнего образования масштаб этого снижения заметно уменьшается. В качестве решения предложена двухэтапная система поддержки: предварительный отбор территорий на основе сочетания уровня и динамики плотности предприятий, затем выявление конкретных ограничений и выбор соответствующих инструментов поддержки.*

ISSN 2181-4732
E-ISSN 2181-4015

Ключевые слова: *региональная экономика, малый бизнес, территориальные диспропорции, Кашкадарьинская область, плотность предпринимательства, адресная поддержка, предпринимательская экосистема..*

UDC 332.1:338.1

IMPROVING ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS FOR REDUCING REGIONAL DISPARITIES IN SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN THE KASHKADARYA REGION

Qunduz Qiyomova, Doctoral student (PhD)
Shirina Ismatova, master

[2]Karshi State Technical University, Karshi, Uzbekistan

Abstract. *This article examines territorial disparities in small business development and provides a rationale for existing place-based support measures. Using official data for 14 districts and two cities in Kashkadarya Region, it compares the number of active small enterprises and microfirms with the permanent resident population as of January 1, 2025, and January 1, 2026. The key indicators calculated include enterprise density per 1,000 residents, its rate of change, the coefficient of variation, and the standard deviation of log enterprise density. Over the study period, enterprise density increased in all districts, while the coefficient of variation across territories declined. However, excluding Kukdala District, given its relatively recent establishment, substantially reduces the magnitude of this decline. The article proposes a two-stage support framework: an initial selection of territories based on both the level and change in enterprise density, followed by the identification of specific constraints and the selection of appropriate support instruments.*

Keywords: *regional economics, small business, territorial disparities, Kashkadarya Region, enterprise density, targeted support, entrepreneurial ecosystem*.

Kirish

Kichik biznesni mintaqaviy qo‘llab-quvvatlash bir nechta maqsadlar orasidan tanlovni to‘g‘ri va muayyan kombinatsiyada amalga oshirishni o‘z ichiga oladi ya’ni faol korxonalar sonini ko‘paytirish, mavjud biznesni mustahkamlash, bandlikni oshirish va aholining iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanishini yaxshilashdir. Bu maqsadlar bir-biri bilan bog‘liq, ammo bir xil emas. Viloyat markazidagi korxonalar sonining ko‘payishi chekka tumanlarda tadbirkorlik faoliyatining nisbatan pastligi bilan birga o‘zaro bir-biriga bog‘liq tizimni yaratadi. Har doim ham biznesni statistik ro‘yxatdan o‘tkazishning tez o‘sishi barqaror ish beruvchilarning soni ko‘payganidan dalolat emas. Shuning uchun, mintaqaviy siyosatni baholash hududlarni ularning aholisi soni va biznesni rivojlantirishning dastlabki darajasini hisobga olgan holda taqqoslashni talab qiladi.

Qashqadaryo viloyati uchun mintaqaviy yo‘naltirilgan qo‘llab-quvvatlash bevosita amaliy ahamiyatga ega. 2026-yil 10-martda viloyat rivojlanishiga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda mahallalarni ixtisoslashtirish, kredit va subsidiyalar ajratish, o‘zini o‘zi band qilishni qo‘llab-quvvatlash hamda mikroloyihalarni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilab olindi [3]. Ushbu yo‘nalishlar tadqiqotni olib borish xususiyatlarini belgilab beradi. Bunday samaradorlikni faqat qo‘llab-quvvatlash obyekti, davomiyligi va qo‘llab-quvvatlash dasturiga kiritilmagan korxonalar guruhi to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida taqqoslab aniqlash mumkin. Hududlarni o‘zaro qiyoslab ulardagi ustunlikka ega bo‘lgan va hali rivojlantirishni talab qiladigan hududlarni o‘rganish iqtisodiy jihatdan yanada aniqroq xulosaga kelishga yordam qiladi.

Materiallar va uslublar

Tadbirkorlikka hududiy yondashuv korxonani mahalliy bozor, infratuzilma, moliya institutlari va ishchi kuchini tayyorlash tizimi bilan o‘zaro aloqadorlik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi. E. Stam va A. van de Ven o‘z tadqiqotlarida tadbirkorlik ekotizimini samarali tadbirkorlik uchun sharoit

ISSN 2181-4732
E-ISSN 2181-4015

yaratuvchi o‘zaro bog‘liq elementlar orqali tavsiflaydilar [4]. Ushbu ish uchun rivojlanishning yagona va universal omilini izlash o‘rniga, sharoitlar majmuasini o‘rganish zarurligi haqidagi xulosa muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, bu yerda foydalanilgan kichik korxonalar soni yuqori sur’atlar bilan o‘sayotgan firmalar ko‘rsatkichiga (yuqorida tilga olingan tadqiqotda tahlil qilinganidek) teng emas.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining hududga yo‘naltirilgan siyosat bo‘yicha hisoboti turli hududlarning o‘ziga xos ehtiyojlari va salohiyatini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi [5]. Bu holat yagona mintaqa doirasida qo‘llab-quvvatlash vositalarini klassifikatsiya qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, xalqaro yondashuvni qo‘llash mahalliy sharoitlarni baholashni talab etadi, chunki u har doim ham mos kelavermaydi: ikki hududdagi o‘xshash statistik natijalar turli sabablarga ko‘ra yuzaga kelgan bo‘lishi va boshqaruv bo‘yicha turlicha qarorlar qabul qilishni taqozo etishi mumkin.

OECDning tadbirkorlik ekotizimlariga oid baholashlarida ham tadbirkorlik faoliyati uchun shart-sharoitlar va uning natijalari o‘zaro farqlanadi [7]. Shu sababli, dastlabki bosqichda tafovutlarni aniqlash uchun korxonalar sonidan foydalanish, ularning sabablarini izohlashda esa kreditlash, infratuzilma va malaka darajasiga oid ma’lumotlarga tayanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu ikki guruh ko‘rsatkichlarini yagona va noaniq reytingga birlashtirish muayyan siyosat vositalarini tanlash jarayonini murakkablashtiradi.

Ushbu maqolada hududiy nomutanosiblik deganda aholi soniga nisbatan faol kichik korxonalar va mikrofirmalar tarqalishining notekisligi tushuniladi. U yakka tartibdagi tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilishning barcha jihatlarini qamrab olmaydi, mehnat unumdorligini o‘lchamaydi hamda barcha hududlar uchun korxonalar zichligining bir xil bo‘lishi maqbul ekanligini anglatmaydi. Siyosatning maqsadi — yuridik shaxslar sonini mexanik ravishda tenglashtirish emas, balki bartaraf etish mumkin bo‘lgan to‘siqlarni olib tashlash va imkoniyatlarni kengaytirishdan iborat.

Tadqiqotning empirik asosi Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi tomonidan 2026-yil 27-yanvarda e’lon qilingan va 2025-yilning yanvaridan dekabrigacha bo‘lgan davrni qamrab oluvchi statistik ma’lumotlar tashkil qiladi. Ma’lumotlar to‘plamiga 14 ta tuman hamda Qarshi va Shahrisabz shaharlari kiritilgan. Qarshi shahri va Qarshi tumani, shuningdek, Shahrisabz shahri va Shahrisabz tumani alohida kuzatuv birliklari sifatida qaraladi. Kuzatuv birliklari ro‘yxati har ikkala vaqt nuqtasida bir xil.

Natijalar va muhokama

Arifmetik muvofiqlikni tekshirish shuni ko‘rsatdiki, korxonalar soni bo‘yicha tuman va shahar ko‘rsatkichlarining yig‘indisi viloyat bo‘yicha umumiy ko‘rsatkichga teng bo‘lib, ular mos ravishda 22 452 va 25 038 birlikni tashkil etadi. Aholi soni bo‘yicha ko‘rsatkichlarning yig‘indisi ham viloyat bo‘yicha umumiy ko‘rsatkichlarga mos keladi: 3 639,3 va 3 717,0 ming kishi. Arifmetik muvofiqlik hisoblangan bo‘lsa-da u birlamchi statistik ma’lumotlarni aniq shakllantira olmaydi.

2026-yilning birinchi yarim yilligiga oid jadvalda 2026-yil 1-iyul holatiga ko‘ra hududiy ko‘rsatkichlar yig‘indisi 27 519 ta korxonani tashkil etadi, holbuki e’lon qilingan hududiy jami ko‘rsatkich 27 419 tani tashkil etadi [8].

Asosiy ko‘rsatkich — har 1000 nafar doimiy aholiga to‘g‘ri keladigan faol kichik korxonalar va mikrofirmalar soni bo‘lib, u “tadbirkorlik zichligi” deb ataladi. Hisob-kitoblarning barqarorligini tekshirish maqsadida tahlil uchun Qarshi va Shahrisabz shaharlari istisno qilindi hamda Ko‘kdala tumani hisobga olinmagan holda olib borildi.

1-jadvalda dastlabki ma’lumotlar va hisoblangan tadbirkorlik zichligi ko‘rsatilgan. 2025-yilda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 586 taga yoki 11,52 foizga oshdi. Aholi sonining o‘sishi hisobga olinganda, tadbirkorlik zichligidagi o‘sish 9,19 foizni tashkil etdi. Binobarin, mutlaq sondagi o‘zgarish sektorning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan kengayish jadalligini biroz yuqoriroq baholaydi.

2026-yil boshida korxonalarning eng yuqori zichligi Qarshi shahrida kuzatilib, har 1 000 nafar aholiga 16,87 ta korxona to‘g‘ri kelgan. Shahrisabz shahrida ushbu ko‘rsatkich 9,69 tani tashkil etgan. Tumanlar orasida eng yuqori ko‘rsatkich Muborak tumanida — 8,30 ta, eng past ko‘rsatkich esa

ISSN 2181-4732
E-ISSN 2181-4015

Chiroqchi tumanida — 4,72 ta bo‘lgan. Barcha hududlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichning eng past ko‘rsatkichga nisbati 4,71 baravardan 3,57 baravarga, tumanlar bo‘yicha esa 2,36 baravardan 1,76 baravarga kamaygan. Ushbu nisbatlar eng yuqori va eng past qiymatlar o‘rtasidagi tafovut ko‘lamini ko‘rsatadi.

1-jadval. Hududlar kesimida kichik korxonalar, mikrofirmalar va ularning zichligi

Hududlar	2025-yilda tadbirkor-lar	2026-yil tadbirkor-lar	2025-yilda aholi	2026-yilda aholi	2025-yilda tadbirkorlik zichligi	2026-yilda tadbirkorlik zichligi
G‘uzor	1058	1140	227,0	232,0	4,66	4,91
Dehqonobod	871	937	162,7	166,2	5,35	5,64
Qamashi	1397	1544	299,8	306,9	4,66	5,03
Qarshi	1730	1952	279,5	286,5	6,19	6,81
Koson	1485	1691	319,4	326,7	4,65	5,18
Kitob	1651	1758	287,7	293,4	5,74	5,99
Mirishkor	763	858	132,3	134,9	5,77	6,36
Muborak	753	805	95,2	97,0	7,91	8,30
Nishon	1132	1259	170,6	174,6	6,64	7,21
Kasbi	1043	1108	217,8	222,3	4,79	4,98
Ko‘kdala	652	1074	194,4	200,0	3,35	5,37
Chiroqchi	1161	1327	274,5	280,9	4,23	4,72
Shahrisabz	1113	1254	239,2	242,8	4,65	5,16
Yakkabog‘	1535	1686	288,3	293,8	5,32	5,74
Qarshi sh.	4750	5166	300,8	306,3	15,79	16,87
Shahrisabz sh.	1358	1479	150,1	152,7	9,05	9,69
Qashqadaryo vil.	22 452	25 038	3 639,3	3 717,0	6,17	6,74

Mutlaq va aholi soniga nisbatan hisoblangan ko‘rsatkichlar hududning holati haqida turlicha tasavvur beradi. 2026-yil boshida Muborak tumanida 805 ta, Qamashi tumanida esa 1 544 ta korxona hisobga olingan. Korxonalarning mutlaq soni bo‘yicha ikkinchi tuman birinchisidan qariyb ikki baravar ustun bo‘lgan. Aholi soniga nisbatan hisoblanganda esa nisbat o‘zgaradi: har 1 000 nafar aholiga mos ravishda 8,30 ta va 5,03 ta korxona to‘g‘ri keladi. Bu nisbatan kam bo‘lsa-da, hududlarda rivojlanganlik darajasini to‘liq baholashning bir mezonigina bo‘la oladi.

Qarshi shahrida viloyatdagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning 20,63 foizi jamlangan, aholining esa 8,24 foizi istiqomat qiladi. Korxonalarning bir qismi ro‘yxatdan o‘tgan hududidan tashqaridagi xaridorlarga ham xizmat ko‘rsatishi mumkin. Bundan tashqari, bosh ofislar va ishlab chiqarish bo‘linmalari turli hududlarda joylashgan bo‘lishi mumkin. Tumanlararo aloqalarni baholash uchun ish o‘rinlarining amaldagi joylashuvi va mahsulot sotish bozorlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar talab etiladi.

Korxonalar zichligi barcha 16 ta hududda oshgan. Eng yuqori o‘sish sur’ati Ko‘kdala tumanida — 60,11 foiz, eng past o‘sish sur’ati esa Kasbi tumanida — 4,08 foiz darajasida qayd etilgan. Ko‘kdala tumanidagi yuqori o‘sish sur’ati boshlang‘ich ko‘rsatkichning pastligi bilan bog‘liq bo‘lgani sababli, u ajralib turadi. O‘sishning qaysi qismi yangi tashkil etilgan va barqaror faoliyat yuritayotgan korxonalar hisobiga, qaysi qismi esa korxonalar maqomi va hisobga olishdagi o‘zgarishlar hisobiga yuz berganini aniqlash ham hududda tadbirkorlik rivojlanishi tendensiyasini belgilashda hisobga olinishi kerak.

2-jadvalda CV — variatsiya koeffitsiyenti. Ko‘rsatkichlar 1-jadvaldagi ma’lumotlarning yaxlitlanmagan qiymatlari asosida hisoblangan. 2025 va 2026-yillarning 1-yanvari holati bo‘yicha hisob-kitob qilindi.

ISSN 2181-4732
E-ISSN 2181-4015

2-jadval. Tadbirkorlik zichligining hududiy taqsimlanishidagi o‘zgarishlar

Hududlar	CV 2025, %	CV 2026, %	Logarifmik taqsimlash 2025-yil	Logarifmik taqsimlash 2026-yil
Jami 16 ta hudud	45,93	43,36	0,3501	0,3193
Shaharlarsiz 14 ta tuman	20,66	17,08	0,2031	0,1594
Ko‘kdala tumanini istisno qilgan holda 15 ta hudud	44,50	43,86	0,3320	0,3268
Shaharlar, Ko‘kdala tumanini istisno qilgan holda 13 ta hudud	18,18	17,49	0,1700	0,1643

2-jadvaldagi har ikkala o‘lchov 2025-yil davomida hududlararo tarqoqlik kamayganini ko‘rsatadi. Barcha hududlar bo‘yicha variatsiya koeffitsiyenti 2,57 foiz punktga pasaygan. Ko‘kdala tumani hisobdan chiqarilganda esa pasayish atigi 0,64 foiz punktni tashkil etadi. Shaharlar hisobga olinmagan holda, tumanlar bo‘yicha tegishli pasayish 3,57 foiz punktga, Ko‘kdala tumani ham chiqarib tashlanganda esa 0,69 foiz punktga teng. Demak, o‘zgarish yo‘nalishi saqlanib qoladi, biroq uning ko‘lami bitta hududning natijalariga sezilarli darajada bog‘liq.

Logarifmik tarqoqlik aholi soni bo‘yicha vaznlashtirilganda ham ko‘rsatkich pasayadi: 0,3679 dan 0,3423 gacha. Taklif etilayotgan mexanizm ketma-ket amalga oshiriladigan ikki bosqichni nazarda tutadi. Dastlab batafsil o‘rganish uchun hududlar statistik mezonlar asosida saralanadi. Keyin tadbirkorlik faoliyatini yuritishga to‘sqinlik qilayotgan aniq omillar aniqlanadi va aniqlangan cheklovni bartaraf etishga qaratilgan vosita tanlanadi. Bosqichlarning bunday ajratilishi muammolari tubdan farq qiladigan tumanlarga bir xil hajmda imtiyozli moliyalashtirish ajratilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Tumanlarni dastlabki saralash uchun ikkita shaharni hisobga olmagan holda 14 ta tuman bo‘yicha korxonalarning o‘rtacha zichligidan — 2026-yil boshida har 1 000 nafar aholiga 5,65 ta korxona — hamda ushbu zichlikning 2025-yildagi 10,13 foizlik o‘sish sur’atidan foydalanish taklif etiladi. Mazkur chegaraviy qiymatlar tanlangan guruh doirasidagi tahliliy mezonlar bo‘lib, rivojlanishning yetarli darajasini belgilovchi me’yorlar hisoblanmaydi. Ular korxonaning qo‘llab-quvvatlash choralaridan foydalanish huquqini avtomatik ravishda belgilamasligi lozim. Shaharlarning vazifalari va ulardagi tadbirkorlik faoliyatining jamlanish darajasi tumanlarnikidan farq qilgani sababli, ular alohida ko‘rib chiqiladi.

3-jadvalda Guruhlar chegaralari berilgan va ularni talqin qilishda ehtiyotkorlik zarur. Qarshi tumanida korxonalar zichligining o‘sish sur’ati 10,08 foizni tashkil etib, 10,13 foizlik mezon qiymatiga yaqin turadi va bu o‘z navbatida, yuqori ko‘rsatkichdir. Dehqonobod tumanidagi 5,64 ta korxonaga teng zichlik ko‘rsatkichi ham 5,65 chegaraviy qiymatiga yaqin. Shu sababli qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi qaror ko‘rsatkichlarning uzluksiz qiymatlari va o‘rganish natijalariga asoslanishi, guruhlash esa diagnostikani tashkil etishning qulay usuli sifatida qo‘llanilishi lozim.

Infratuzilma yo‘nalishi korxonalarning tasdiqlangan talabidan kelib chiqib, birgalikda foydalaniladigan obyektlarni — faoliyat yuritish maydonchalari, muhandislik tarmoqlariga ulanish infratuzilmasi, ombor yoki logistika quvvatlarini — tanlashni nazarda tutadi. Moliyalashtirishdan oldin potensial foydalanuvchilar doirasi, foydalanish shartlari va saqlash xarajatlarini aniqlash zarur. Obyektdan foydalanishning amaliy modeli mavjud bo‘lmasa, uni yaratishning o‘zi tadbirkorlik rivojlanishini kafolatlamaydi. Iqtisodiy natijani faqat o‘zlashtirilgan mablag‘lar hajmi orqali emas, balki obyekt quvvatlaridan foydalanish darajasi, foydalanuvchilar xarajatlarining kamayishi va ular faoliyatining barqarorligi orqali baholash taklif etiladi.

Mexanizmning tashkiliy qismi viloyat va tumanlarning mavjud tuzilmalariga muvofiqlashtirish vazifasini yuklash orqali amalga oshirilishi mumkin. Uning vazifalari ma’lumotlarni muvofiqlashtirish, tadbirkorni tegishli vakolatga ega ijrochiga yo‘naltirish, murojaatni ko‘rib chiqish muddatini nazorat qilish va natijani qayd etishdan iborat. Yangi tashkilot tuzishning o‘zi zarur shart

ISSN 2181-4732
E-ISSN 2181-4015

hisoblanmaydi. Har bir chora bo‘yicha mas’ul ijrochi, saralash mezonlari, xizmat ko‘rsatish muddati va shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartibi belgilanishi lozim

3-jadval. Keyingi diagnostika uchun hududlarni dastlabki guruhlash

Korxonalar zichligi va o‘sish sur’ati	Tumanlar	Diagnostika yo‘nalishi
Zichlik mezon qiymatidan past; o‘sish sur’ati mezon qiymatidan past	G‘uzor, Dehqonobod, Qamashi, Kasbi	Yangi korxonalarni tashkil etish va mavjud korxonalar faoliyatini saqlab qolishga to‘sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash
Zichlik mezon qiymatidan past; o‘sish sur’ati mezon qiymatidan yuqori	Koson, Ko‘kdala, Chiroqchi, Shahrisabz	Korxonalar sonining jadal o‘sishi barqarorligini hamda yangi korxonalarning maslahat va amaliy ko‘makka bo‘lgan ehtiyojini baholash
Zichlik mezon qiymatidan yuqori; o‘sish sur’ati mezon qiymatidan past	Qarshi, Kitob, Muborak, Nishon, Yakkabog‘	Faoliyat yuritayotgan korxonalarning o‘sishini cheklovchi omillarni va tarmoqlarning to‘yinganlik darajasini o‘rganish
Zichlik mezon qiymatidan yuqori; o‘sish sur’ati mezon qiymatidan yuqori	Mirishkor	Tumanlararo kooperatsiyani rivojlantirish va ilg‘or tajribalarni boshqa hududlarga tatbiq etish imkoniyatlarini o‘rganish

Budjet mablag‘larini taqsimlashni ikki qismda tashkil etish taklif etiladi: barcha hududlarda asosiy maslahat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta’minlash va tasdiqlangan cheklovlarni bartaraf etishga qaratilgan loyihalarni tanlov asosida moliyalashtirish. Loyihaning ustuvorligi kutilayotgan qo‘shimcha natija, potensial foydalanuvchilar soni va muammoni hal etish xarajatlariga bog‘liq bo‘lishi kerak. Korxonalar zichligining pastligi hududni batafsil o‘rganish uchun asos bo‘ladi, biroq iqtisodiy jihatdan yashovchan bo‘lmagan loyihani qo‘llab-quvvatlashni oqlamaydi. Shu bilan birga, agar loyiha bir nechta tuman uchun o‘lchanadigan afzalliklar yaratsa, korxonalar zichligining yuqoriligi yordam ko‘rsatishni istisno qilmasligi lozim.

Xulosa

Mexanizmni tajriba-sinov tariqasida joriy etish uchun qo‘llab-quvvatlash boshlanishidan oldin baholash ko‘rsatkichlari va ularning boshlang‘ich qiymatlarini belgilash taklif etiladi. Korxonalar zichligidan tashqari, 12 va 24 oydan keyin faoliyatning davom etishi, bandlik, real aylanma hamda yordam so‘rab takroriy murojaatlar kuzatib borilishi lozim. Infratuzilmaviy choralar bo‘yicha ulanish muddatlari va haqiqiy foydalanuvchilar soni, moliyaviy choralar bo‘yicha esa mablag‘lardan foydalanish imkoniyati va to‘lov intizomi qo‘shimcha ravishda hisobga olinadi. Xarajat va natija ko‘rsatkichlarining hududiy hamda vaqt qamrovi bir xil bo‘lishi kerak.

Qo‘llab-quvvatlashdan foydalangan korxonalarni qolgan korxonalar bilan oddiy taqqoslash bir tomonlama baholashga olib kelishi mumkin. Chunki yordamni ko‘pincha eng yaxshi tayyorgarlikka ega arizachilar yoki, aksincha, eng og‘ir vaziyatdagi korxonalar oladi. Shu sababli tajriba-sinov loyihasi yordam olgan korxonalardagi o‘zgarishlarni ularga o‘xshash, ammo yordam olmagan korxonalardagi o‘zgarishlar bilan taqqoslash imkonini beradigan tarzda ishlab chiqilishi lozim. Dastur bosqichma-bosqich ishga tushirilganda, uning boshlanishidan oldingi va keyingi davrlarda guruhlar ko‘rsatkichlari dinamikasidagi farqlarni tahlil qilish mumkin. Biroq buning uchun dasturdan oldingi tendensiyalarni tekshirish va siyosatdagi boshqa o‘zgarishlarni hisobga olish zarur. Mazkur maqolada bunday baholash amalga oshirilmagan.

Empirik tahlilning cheklovlari, avvalo, tadbirkorlikni tavsiflovchi ko‘rsatkich qamrovining torligi va kuzatuv davrining qisqaligi bilan bog‘liq. Ikki sanadagi ma’lumotlar investitsiyalar, tarmoq tarkibi, infratuzilma yoki boshqaruv sifatining ta’sirini aniqlash imkonini bermaydi. Korxonalar soni haqidagi ma’lumotlar ularning aylanmasi, hajmi, unumdorligi va bandlik darajasini ochib bermaydi.

ISSN 2181-4732
E-ISSN 2181-4015

Faoliyat yuritayotgan korxonalar sonining ko‘payishi yangi tashkilotlarning paydo bo‘lishi, faoliyatning qayta tiklanishi, ro‘yxatdan o‘tgan hududning almashishi hamda statistik maqomdagi o‘zgarishlarni aks ettirishi mumkin. Shu bois sof o‘sishni yangi tashkil etilgan korxonalar soni bilan tenglashtirish mumkin emas.

2025 va 2026-yillar boshidagi rasmiy ma’lumotlarni taqqoslash Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sektori kengayganini ko‘rsatadi. Korxonalar zichligi har 1 000 nafar aholiga 6,17 tadan 6,74 tagacha oshgan. Barcha hududlarda ushbu ko‘rsatkichning o‘sishi kuzatilgan, biroq o‘sish ko‘lami sezilarli darajada farq qilgan. Aholi soni hisobga olingandan keyin ham korxonalarning Qarshi shahrida yuqori darajada jamlangani saqlanib qolmoqda.

Variatsiya koeffitsiyenti va logarifmik tarqoqlik ko‘rsatkichlari tadqiq etilgan yil davomida hududiy tafovutlar qisqarganini ko‘rsatadi. Sezgirlik tahlili Ko‘kdala tumani hisobdan chiqarilganda, aniqlangan yaqinlashuv ko‘lami sezilarli darajada kamayishini ko‘rsatadi. Shu sababli mazkur natijani isbotlangan uzoq muddatli tendensiya yoki davlat dasturining ta’siri sifatida emas, balki muayyan davrdagi o‘zgarish sifatida talqin qilish lozim.

Qo‘llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishni «taqqoslanadigan statistika — cheklovlar diagnostikasi — manzilli vosita — natijani tekshirish» ketma-ketligi asosida tashkil etish taklif qilinadi. Tumanlarni korxonalar zichligi darajasi va uning o‘sish sur’ati bo‘yicha dastlabki guruhlash batafsil o‘rganish yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi. Moliyalashtirish to‘g‘risidagi qaror tasdiqlangan to‘siq va kutilayotgan qo‘shimcha natijaga asoslanishi kerak. Bunday yondashuv e’tiborni tadbirkorlik subyektlari sonini shunchaki ko‘paytirishdan korxonalar faoliyatining barqarorligiga hamda turli hududlar aholisi uchun tadbirkorlik imkoniyatlarining ochiqligini ta’minlashga qaratadi.

Adabiyotlar

[1] Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari. 2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun. 27.01.2026. 13 c. URL: https://qashstat.uz/uploads/press25/MBn-PR-UZ-12-2025.pdf.

[2] Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. Qashqadaryo viloyatida demografik holat. 2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun. 27.01.2026. 6 c. URL: https://qashstat.uz/uploads/press25/DM-PR-UZ-12-2025.pdf.

[3] Президент Республики Узбекистан. Обсуждены приоритетные задачи по развитию Кашкадарьинской области. 10.03.2026. URL: https://www.president.uz/ru/lists/view/9005.

[4] Stam E., van de Ven A. Entrepreneurial ecosystem elements. Small Business Economics. 2021. Vol. 56. P. 809–832. DOI: https://doi.org/10.1007/s11187-019-00270-6.

[5] OECD. Place-Based Policies for the Future. OECD Regional Development Studies. Paris: OECD Publishing, 2025. DOI: https://doi.org/10.1787/e5ff6716-en.

[6] OECD. Boosting Business in Regions: Easing Administrative Burdens and Financing Constraints. OECD Regional Development Studies. Paris: OECD Publishing, 2025. DOI: https://doi.org/10.1787/396cc7c2-en.

[7] OECD. Entrepreneurial Ecosystem Diagnostics. OECD Studies on SMEs and Entrepreneurship. Paris: OECD Publishing, 2025. DOI: https://doi.org/10.1787/7096961f-en.

[8] Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari. 2026-yil yanvar-iyun oylari uchun. 27.07.2026. 13 c. URL: https://qashstat.uz/uploads/press26/MBn-PR-UZ-06-2026.pdf.

[9] Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. URL: https://qashstat.uz/uploads/.

[10] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti www.stat.uz kichik biznes va tadbirkorlik ko‘rsatkichlari.